

Shavkat Mirziyoyev: Toshkentda ilmiy tadqiqotlar uchun juda katta manba bor



Eslatib o'tamiz, Prezident Shavkat Mirziyoyev joriy yil 11-yanvar kuni poytaxtimizdagi buniyodkorlik ishlari bilan tanishuv chog'ida Toshkent shahri muzeyini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar bergen edi. Adiblar xiyoboni yonidagi bino rekonstruksiya qilinib, mazkur muzey shu yerga joylashtirildi.

Buyuk ipak yo'lining gavjum chorrahasida joylashgan Toshkent asrlar davomida ilm-fan, madaniyat va ma'rifat markazlaridan bo'lib kelgan. Vatanimizning oltin ostonasi bo'lmish poytaxtimiz bugungi kunda yanada rivojlanib, go'zal va obod megapolislardan biriga aylanib bormoqda. Lekin shunday katta shahar shu vaqtga qadar o'zining muzeyiga ega emas edi.

Toshkent shahri muzeyi 2200-yillik tarixga ega bo'lgan hududning qadim o'tmishi, urf-odat va an'analarini, ilm-fani, madaniyati va san'atini o'zida aks ettiradi. Hozirgacha bu yerda mingga yaqin eksponatlar to'plangan. Muzey fondini boyitish izchil davom ettirilmoqda.

Birinchi qavatda "Toshkent - ilm-fan markazi", "Toshkent - bag'rikenglik shahri", "Amaliy san'at. Kundalik hayot va madaniyat" deb nomlangan ekspozitsiyalar tashkil etilgan. Ikkinchi qavatda qadimiy ish qurollari, xo'jalik buyumlari, qadamjolarning maketlari namoyishga qo'yilgan.

Eksponatlarga o'zbek, rus va ingliz tillaridagi matnlar bilan sharh beriladi. Monitorlar, infokiosklar va boshqa texnologiyalar yordamida qo'shimcha ma'lumotlar taqdim etiladi.

- Bu birinchi qadam, - dedi Shavkat Mirziyoyev. - Toshkentda ilmiy tadqiqotlar uchun juda katta manba bor. Lekin shu paytgacha yaxlit va to'liq o'rganilmagan. Endi 2200 yillik tarixni davrma-davr o'rganish, muzeyni ashyoviy dalillar bilan boyitib, shahar sivilizatsiyasini to'la yuzaga chiqarish kerak.



Shu maqsadda ilmiy-tadqiqot instituti tashkil qilish, arxeologlarga sharoit yaratish, izlanishlar natijasi bo'yicha kitoblar chop etish zarurligi ta'kidlandi. Mahalla va maktab yoshlarini bu yerga olib kelish, boshqa shaharlarda ham shunday muzeylar tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Muzey Adiblar xiyoboni yonida tashkil etilgani ham bejiz emas. Yozuvchi va shoirlar, tarixnavislar uning faoliyatini jlonlantirish, xorijliklarga targ'ib etishga hissa qo'shadi.



Uzbekistan Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI

Uzbekistan Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI



Uzbekistan Republic Government
MAMLUK XIZMATI




Uzbekistan Republic Government
MAMLUK XIZMATI







Ozbekestan Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI



Ozbekestan Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI



Ozbekiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI



Ozbekiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI



Özbekiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI



Özbekiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI



Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI



MATBUOT XIZMATI





Manba:president.uz

Ozbekiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI